



ON HISTORICAL RESEARCH RELATED TO FAMILY AND MARRIAGE

Feruza Khurshitovna Inagamova

Associate Professor, Department of Languages, Exact and Social Sciences

PhD in Philosophy

TMC Tashkent Institute

inagamovaferuza4@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: economic stability, demographic development, legal and regulatory framework, main directions of family development, spiritual and moral environment in families, family institution, international best practices.

Received: 24.11.25**Accepted:** 25.11.25**Published:** 26.11.25

Abstract: In our opinion, family and family relations, which are the object of socio-philosophical research, are historically well-established in terms of their value measurement and represent an object that requires study. The philosophical interpretation of research on family issues, like any scientific theoretical hypothesis, is based on a system of objectively grounded knowledge about the world and humankind. As a rule, for any research object, including the study of family as a value, it is founded on specific scientific and theoretical knowledge.

OILA VA NIKOHNING TARIXIY IZLANISHLARIGA OID

Feruza Xurshitovna Inagamova

Tillar, aniq va ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TMC Tashkent Instituti

inagamovaferuza4@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, demografik rivojlanish, huquqiy-me'yoriy asos, oila taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit, oila instituti, xalqaro ilg'or tajriba.

Annotatsiya: Ma'lumki, ijtimoiy falsafiy tadqiqot obyekti hisoblanayotgan oila va oilaviy munosabatlar o'zining qadriyat o'lchovi bo'yicha, tarixiy jihatdan yaxshi shakllangan va o'rganish zarur bo'lgan obyektidir. Oila masalalariga doir tadqiqotlarning falsafiy talqini, har qanday ilmiy nazariy gipotezalar singari, dunyo va

inson haqidagi obyektiv asosli bilimlar tizimiga asoslanadi. Qoidaga ko'ra, har qanday tadqiqot obyekti uchun shu jumladan, oilaning qadriyat sifatida o'rganilishi ham muayyan ilmiy-nazariy bilimlarga asoslanadi.

О ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ, СВЯЗАННЫХ С СЕМЬЕЙ И БРАКОМ

Феруза Хуриштовна Инагамова

Доцент кафедры языков, точных и социальных наук

Доктор философских наук (PhD)

Ташкентский институт ТМС

inagamovaferuza4@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономическая стабильность, демографическое развитие, нормативно-правовая база, основные направления развития семьи, духовно-нравственная среда в семьях, институт семьи, передовой международный опыт.

Аннотация: По нашему мнению, семья и семейные отношения, являющиеся объектом социально-философского исследования, представляют собой исторически хорошо сформированный объект, требующий изучения с точки зрения его ценностного измерения. Философская интерпретация исследований по вопросам семьи, как и любая научно-теоретическая гипотеза, основывается на системе объективно обоснованных знаний о мире и человеке. Как правило, изучение любого объекта исследования, в том числе и семьи в качестве ценности, опирается на определенные научно-теоретические знания.

Kirish. Oila va nikoh tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlardan qadimgi grek faylasufi Platondir. Uning fikricha, “Barcha zamon va makonlarda patriarxal oila ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo‘ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo‘lgan” [1]. Platonning oila to‘g‘risidagi qarashlarini “Ideal davlat” deb nomlangan asarida quyidagicha bayon qilgan, “...jamiyatda hamjihatlikni ta’minlash uchun ayollar, bolalar birlashmalari va sarmoyalarning umumiylikiga erishish lozim” [2]. “Ammo bu fikr aslida yangi fikr emas edi. Qadimgi grek tarixchisi Geradot “Tarix” deb nomlangan asarida ayollar birlashmalari bir qator qabilalar uchun o‘ziga xos xususiyat ekanligini ta’kidlagan edi [3]. Bu kabi ma’lumotlarni antik davrga xos bo‘lgan ko‘plab manbalarda uchratishimiz mumkin. Jumladan, Aristotel o‘zining “ideal davlat”ga oid fikrlarida patriarxal, ya’ni erkak kishi yetakchi bo‘lgan oila modelini yoqlab, yangi konsepsiya ishlab chiqqan. Uning fikricha, oilalar birlashib, “turar-joylarni”, “turar-joylar” birlashib, yaxlit davlatni tashkil etadi. Platon va Aristotellarning

bu kabi nuqtayi nazarlari ancha davrlargacha hukmron bo'ldi va oila jamiyatning asosiy negizi sifatida, o'ziga xos bo'linmas patriarxal institut sifatida idrok etilib kelindi" [4].

Qadimgi davrda oila va nikoh munosabatlarning rivojlanishini Sharq mamlakatlari – Xitoy va Hind mutafakkirlari ijodida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, Xitoy mutafakkiri Konfutsiy o'z qarashlarida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni oilaviy munosabatlar tizimi bilan bog'lab tahlil qiladi. Konfutsiy o'z nuqtayi nazariga, ko'ra jamiyatni mustahkam munosabatlar tizimiga ega bo'lgan oilaga o'xshatadi. Negaki, har qanday jamiyat shubhasiz oilalardan tashkil topadi va oilaviy munosabatlar asosida rivojlanadi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi. 1. Ota va farzand; 2. Er va xotin; 3. Aka-ukalar; 4. Turli oilalar; 5. Hukmdor va fuqarolararo munosabatlarga bo'ladi [5].

“Oila masalasi boshqa xalqlar qatori hind xalqining ijtimoiy-falsafiy va etnologik merosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Malanaga Vatsyayananing “Kamasutra” asari muhim o'rin tutadi. Avvalo shuni aytishimiz zarurki, bu asar erotika haqida, degan noto'g'ri, tor fikr tarqalgan. “Kamasutra” yoshlarning bir-birini sevib oila qurishi tarafdori. Mulkiy munosabatlar (artxi)ga qurilgan jamiyatda, qanchalik muhim bo'lmasin, u sevishtanlarning oila qurishiga to'siq bo'lolmaydi” [6].

M.Vatsyayana esa monogamiya tarafdori sifatida fikr yuritadi, oila qurish asosini sevgida, yoshlarning bir-birlarini yoqtirishadi ko'radi. U ikki jinsning qovushishida hayotga bo'lgan muhabbatning, ularning yon-atrofdagi go'zallikdan zavq olib, lazzat topib, bir-birlarini ardoqlab, sevib yashash manbasini ko'radi. “Hindlar erkak va ayol qovushishidan hissiy estetik go'zallik, maftunkorlik, zavq qidirganlar, uni jamiyatdagi barqarorlik, osoyishtalik, an'analarni saqlash va oilaviy hayotni mustahkamlashning hal qiluvchi omillaridan biri, deb bilganlar. Shuning uchun erotologiya va gender psixologiyasiga oid tadqiqotlar ko'rsatadiki, qovushish psixofiziologiyasi ayricha tuzilgan jinslar o'rtasidagi yaqinlik har doim ham tomonlarni qoniqtiravermaydi, bu esa erkak va ayolning bir-birlarini yoqtirmasligini keltirib chiqaradi. Qovushishdan qoniqmaslik ruhiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, jinslar o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtiradi” [7]. Bundan ko'rinadiki, oila mustahkamligi oilaviy munosabatlarda o'z ifodasini topadi. Bu munosabatlar tabiiy (jinsiy), iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va mulkiy ko'rinishda bo'lib, har biri muayyan darajada oila mustahkamligini ta'minlash omili hisoblanadi. Buni har bir yosh-avlod ongiga ta'lim va tarbiya vositasida singdirish muhimdir.

“Oila va nikoh munosabatlari masalasini qadimgi davrda Markaziy Osiyoda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, “Avesto”da oila muqaddas dargoh ekanligi, uning barqarorligida er-xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon qilingan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bog'liq ekanligi

haqida esa quyidagicha fikr yuritiladi. “Parso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o‘rin ajratib bersa, uyida noz-ne‘matlari muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e‘tiqod va sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa o‘sha manzil muhtaramdir” deb yozilagan” [8].

“Avesto”ning Vendidad qismida oila butunligini saqlash, nikoh tuzish tartiblari, nikohning bekor qilinishi sabablari va shartlari ancha batafsil bayon qilingan: - Ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do‘st bir-birovi bilan nima xususda paymon bog‘lasalar - biri ikkinchisining xonadonidan o‘ziga xotin tanlasa, so‘zsiz uning talabi qondirilishi lozim” [9] yoki: “Men bu so‘zlarim bilan kuyov tanlamoqchi bo‘lgan qizlarga va siz ikki tanga ham nasihat qilaman. Mening o‘gitlarimga quloq solinglar va uni haqiqatda xotirangizga jo qiling va o‘z dinlaringizni topinglarda, uni amalda joriy etinglar” [10].

“Shuningdek, Avestoda yozilishicha oilada oilaviy munosabatlarda ota yetakchi bo‘lgan ma‘qul deyiladi. Ushbu oilaviy munosablarga hamma rioya qilishi lozim bo‘lgan. Eng ahamiyatlisi hamma davrlarda ham zarur bo‘lgan er- xotinni o‘zaro sodiq, bir- birlarigi g‘amxo‘r, mehribon bo‘lishlari, ayolning huquqlarini himoya qilish shu davrda ham qonun darajasiga ko‘tarilgan. Bu esa, oilaviy munosabatlarni mustahkamlashi uchun muhim asos, avlodlar tarbiyasi uchun asosiy mezon hisoblanadi. Ko‘rishimiz mumkinki, oilaviy munosabatlarning paydo bo‘lishi va rivoji qadimgi davrlarda nafaqat G‘arb davlatlarida, balki Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda ham birdek ahamiyatli bo‘lgan” [11].

“O‘rta asrlarda ham Sharq mutafakkirlari, xususan, Markaziy Osiyo allomalari ham davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib, oila va nikoh munosabatlariga o‘z fikrlarini bildirgan. Abu Homid Al-G‘azzoliy oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida o‘rgangan. Al-G‘azzoliy oilaning nikoh, qarindoshlik, ma‘naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni biriktiruvchi jamiyatning kichik bir bo‘lagi sifatida o‘rganar ekan, oilaviy munosabatlar islom dini qoidalari asosida bo‘lishiga targ‘ib qiladi. Oila va nikoh munosabatlari haqidagi qarashlari mutafakkirning “Uylanish odobi”, “Mukoshafatul qulub”, “Kimyoi saodat” kabi asarlarida uchratish mumkin” [12].

“Ma‘lumki, oila har bir jamiyatning boshlang‘ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo‘ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg‘unchilik bo‘lsa, halol-xaromning farqi qolmasa, o‘sha jamiyat buziladi, tinchi yo‘qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi” [13].

“G‘azzoliy oilaviy hayotning dastlabki bosqichi bo‘lmish nikohni muhimligini ta‘kidlab asarlarida yozadiki, nikoh inson vujudi salomatligini ta‘minlaydi. Inson salomatligi va naslni

ko'paytirish uchun: nikoh ma'lum axloq-odob doirasida bo'lishi lozim. Nikohning inson va jamiyat uchun fazilati va xosiyati beshtadir. "Avvalgi foyda farzanddurkim, farzand sababidan to'rt savob hosil bo'lur...

Ikkinchi savob ulki, hazrati Rasuli akram s.a.v.ning sunnatlariga mutobiat qilg'on bo'lur, tokim ummatimning ko'p bo'lg'oniga mubohat qilurlar. Ushbu sababdan tug'mas xotindan qaytaribdurlar.

Uchinchi savob ulki, farzandlar ota, ona duosidan bahramand bo'lur...

To'rtinchi savob ulki, agar farzand otasidan ilgari o'lsa, qiyomat kuni anga shafatchi bo'lur". Shu bilan birga, beshinchi savob, erkaklar xotinlarni yomon fe'ligiga sabr qilmoq" [14], nafsni yengishga jiddu-jahdsiz va mashaqqatsiz erishib bo'lmasligini bilmoqlari lozim.

Oila va uning mustahkamligi masalasining yechimiga asrlar davomida shakllangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, urf-odatlariga, belgilangan me'yorlarga, qat'iy tartib – qoidalarga amal qilib yashash asosida erishiladi. Ushbu fikrlar tasdig'ini yuqorida ko'rsatib o'tilgan nikoh masalasining qat'iyligi, uning savoblari haqidagi mulohazalarda ko'rish mumkin.

"Islom ta'limotida oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlariga juda katta e'tibor beriladi. Bu masala farz va sunnat darajasiga ko'tarilib, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda alohida sura va oyatlar hamda payg'ambar nasihatlarida alohida o'rin berilgan. Shundan kelib chiqib, Imom G'azzoliy xotinlarning erlariga haqlari ko'p, deb ta'kidlaydi. Eng avvalo, ularning jins sifatida jismoniy ojizligi, ma'naviy joziba, husnu halovati ham ularga alohida nazar va marhamat bilan qarash, bergan azoblariga chidash hamda ayrim gunohlarini kechirishni taqozo qiladi" [15].

Xuddi shu fikr Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda: "Ey mo'minlar, xotinlarga zo'rlik bilan voris bo'lishingiz halol emas. Agar ochiq buzuqlik qilgan bo'lmasalar, bergan mahrlaringizning bir qismini qo'lga kiritish uchun ularni ezmang. Ularga yaxshi muomala qilinglar. Agar ularni yomon ko'rsangiz ham sabr qiling, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin" [16] - deyiladi.

"Shuningdek, Abu Ali ibn Sino (980-1037) buyuk olim sifatida barcha hodisalarning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rini alohida ta'kidlangan. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan" [17].

"Antik davr faylasuflari, o'rta asr allomalari ijodida, shuningdek, yangi davrda ham ko'plab tadqiqotchilar va olimlar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlari hamda ijtimoiy-etnologik qarashlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati, uning namoyon bo'lishi xususiyatini aynan oilaviy munosabatlarning negizidan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar" [18].

“Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ham oila va nikoh masalasi dolzarb masalalar qatorida o‘rganildi. Jumladan, fransuz ma’rifatparvari Jan-Jak Russo o‘z qarashlarida “Oila - eng qadimiy va asli tabiiy bo‘lgan jamiyat bo‘lagidir” - deb fikr bildiradi, shuningdek, faylasuf fikrini davom qildirib” [19], “Oila - kerak bo‘lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda yetakchi, rahbar - go‘yoki ota misoli, xalq esa – farzandlar kabidir” [20] degan g‘oyani ilgari suradi. “Bu aslida insoniyat tarixida uzoq davrlargacha ustivor bo‘lib kelgan paternalizm tamoyilining jamiyat hayotidagi yaqqol ifodasidir (“patern” - ota, otalik, yetakchilik ma’nosini bildiradi). Bundan ko‘rinadiki, kishilik jamiyatida, xususan oilada otaning yetakchilik roli ancha oldingi davrlardan davom etib kelmoqda” [21].

“Taraqqiyotning yangi bosqichida ham oila va nikoh masalalari haqidagi fikrlarni nemis faylasuflari I.Kant va Gegelning mutloq g‘oyaga aloqador asarlarida ham ko‘rish mumkin. Ular avvalo “oila” va “nikoh” tushunchalari o‘rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta’kidlaydilar. Shu boisdan hozirgi davrda shu ikki tushuncha ko‘pincha ma’nodosh so‘zlar sifatida yonma-yon qo‘llanilib kelinmoqda. Shunday bo‘lsada, tadqiqot markazini tashkil etgan oila masalasi bilan shug‘ullanayotgan olimlar bu ikki tushunchaning o‘rtasida nafaqat farq borligini, balki ular aslida tarixan turli davrlarda paydo bo‘lganligini ham ko‘rsata oldilar” [22]. Masalan, rus olimi A.G. Xarchev (1921-1987) o‘z kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilab berilgan. Xususan, uning talqinida “nikoh - erkak va ayol o‘rtasidagi tarixan o‘zgaruvchan o‘zaro munosabatlarni bildirib, shu ijtimoiy munosabat orqali jamiyat ikki jins vakillarining jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o‘zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu munosabatlarda vujudga keladigan huquq va majburiyatlarni belgilaydi” [23]. “Oila esa nikohga nisbatan murakkab tabiatli munosabatlarni ifodalaydi. Chunki, u nafaqat er va xotinlarning o‘zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug‘lar, er va xotin uchun yaqin bo‘lgan insonlar munosabatlarini, shuningdek, ajdodlar va avlodlar o‘rtasida oilaviy an’analar, urf-odatlar va boshqa qadriyatlarni transformatsiya (ajdodlardan avlodlarga o‘tkazish) qilish vazifasini ham o‘z ichiga oladi” [24].

“Oilaviy munosabatlarni jamiyat va ijtimoiy munosabatlarni nuqtayi nazaridan tahlil qilgan taniqli olimlar O.Kont va Frederik Le Pleylar katta hissa qo‘shdilar, ularning uslubiy pozitsiyalari o‘rtasidagi farq tahlilning pozitivistdan naturalistik baholashgacha bo‘lgan semantik ko‘lamini ko‘rsatdi. O.Kontning fikricha, “oila jamiyatning asosiy hujayrasi yoki o‘ziga xos “substanti”dir. Pozitivizm doirasidagi substantiv yondashuv ilmiy metodologiyaning pozitivistik falsafaning ma’nosi bo‘lgan “nima uchun” savolidan "qanday" savoliga o‘tish talabiga to‘liq javob berdi” [25]. Oilaning ijtimoiy qiymati ijobiy baholana boshlandi, ya’ni oilaga jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida qaraldi. “Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan oilaning ijtimoiy

maqom va rolini aniqlashda oilaning ijtimoiy funksiyalari tahlil qilindi va oila jamiyatning birlamchi yacheykasi, asosi ekanligi to'g'risidagi to'xtamga" [26] kelgan.

Frederik Le Play oila turlarini butun jamiyatning tarixiy faoliyatini tushunish, shuningdek, islohotlarni bashorat qilish vositasi sifatida ko'rib chiqdi. Uning fikricha, "...tashqi muhit odamlarning iqtisodiy hayotini belgilaydi, shu bilan birga oila shaklini belgilaydi, bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiladi" [27]. Shunday qilib, Frederik Le Playning fikricha, jamiyatni tushunish uchun oilani tushunish kerak.

"Bunday yondashuvni naturalistik deb atash mumkin, chunki bu trda tashqi muhit tabiatning o'zidan boshqa narsa emas, oila hayotning tabiiy jarayonining bir qismi sifatida unda ishtirok etadi va shuning uchun hayot muhiti bilvosita shakl – oila orqali iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning yo'nalishini shakllantiradi" [28].

XX asrning ikkinchi yarmida oilaviy tadqiqotning yangi uslubiy g'oyasi - ijtimoiy-psixologik g'oya paydo bo'ldi. Uning tarafdorlari sifatida E. Burgess, V. Jeyms, F. Znaneskiy, C. Cooley, J. Piaget, V. Tomas, Z. Freyd va ularning izdoshlarini ko'rsatish mumkin. Psixologlarning fikricha, "oilal - bu zaruriy va tabiiy shart-sharoit, shaxsning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladigan ijtimoiy makon. Ko'plab olimlar o'z qarashlarida oilaning ijtimoiy xususiyatlariga to'xtalib, oila jamiyatda bir qator funksiyalarni bajaradi hamda qadriyatlarning shakllanishiga, ularni transformatsiyaga uchrab avlodlarga o'tadi" [29], - deb fikr yuritadi.

L.M. Pankova o'zining doktorlik dissertatsiyasida qadriyatlar muammosini muhokama qilar ekan, oila faoliyatining xilma-xilligini shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi genezisi bilan bog'lab, "qadriyat yo'nalishlari, birlik yoki qarama-qarshilik oila faoliyatiga ko'ra aniq shakllanadi" [30] deb ta'kidlaydi. "Ehtimol, biz oilaning qadr-qimmati haqidagi g'oyalarni mahalliyalashtirish bilan shug'ullanamiz, bu oila ichidagi faoliyat qadriyatlarni shakllantirish algoritmini o'zi belgilaydi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, oila qadriyatini shakllantirish xususiyatlari faollikdan ko'ra chuqurroqdir. Qadriyatlarning kelib chiqishi va o'zgarishining xususiyatlari nafaqat faoliyat (maqsadli), balki madaniy va ma'naviy xususiyatga ega bo'lib, ular nafaqat oila faoliyatiga, balki butun madaniyatga ham tegishli. Aynan shu xususiyat oilaning ijtimoiy qiymatini ko'rsatadi" [31].

"Oilal va nikoh masalalariga tarixiy yondashuvni shveysariyalik olim I.Baxoven (1815-1887) ishlarida, ayniqsa, uning "Onalik huquqi" kitobida ham kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, amerikalik tadqiqotchi L.Morgan (1818-1881)ning asarlarida ham oilaga nisbatan evolyusion qarashlar bayon etilgan bo'lib, "Qadimgi jamiyat" kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog'liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog'liq

ekanligi g'oyasi o'z isbotini topgan. Bu o'zgarishlar tarix mobaynida turli jins vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq tarzda kechishi ham ta'kidlangan" [32].

"Shunday qilib, oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'analari tarixi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar, etnolog va antropologlar (L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin, keyinchalik A.Xarchev, S.Golod va boshqalar.) oila muammolarini o'zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o'rgana boshladilar. Negaki, oila jamiyatning ajralmas qismi hamda muhim negizi hisoblanishi bilan oila va nikoh masalasini tadqiq va tahlil qilish barcha davrlarda, xususan hozirgi davr uchun ham nihoyatda muhimdir" [33].

"Oila mustahkamligi bevosita oilaviy munosabatlar mustahkamligiga hamda undagi barqaror aloqalarga bog'liqdir. Oilaviy munosabatlarning barqarorligi muammosi alohida shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham birdek muhimdir". Yuksak taraqqiy etgan har bir mamlakatda o'zining hayotiy maqsadlariga ega bo'lmagan, barqaror oila yaratish vazifasini rejalashtirmagan mustahkam oilaga ega bo'lishni orzu qilmagan fuqaroni topish qiyin. Tabiatan shaxs barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash orqali o'zining hayotiy maqsadlarini real voqeilikka aylantirishga harakat qiladi, qo'yilgan vazifa mohiyatga chuqur kirib bordi. Bunda shaxs o'zining faoliyat yo'nalishini barqarorlikka bo'lgan ehtiyoj sifatida belgilaydi. Jamiyatda odamlar o'rtasida, oilaviy munosabatlarda barqaror aloqalarni o'rnatish inson faoliyatining debochasi, o'ziga xos boshlang'ich nuqtasi deb qaraladi. Bunda oila ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy munosabatlar eng keng tarqalgan va nisbatan barqaror xarakterga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Платон Ф. Законы. – М.: Русайнс, 2015. – С. 324.
2. Платон. Диалоги. Апология Сократа. — Москва : Издательство АСТ, 2019. – С. 352.
3. Геродот. Истории. - М.:Литрес, 2011. – С. 232.
4. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilaning-rivojlanish-tarixi>.
5. Конфуций и конфуцианство // https://vk.com/@h_a_m-konfucii-i-konfucianstvo
6. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.
7. Alimasov V. Falsafa. Hayot. Ijod.–Toshkent: O'zR FA Asosiy kutubxonasi nashriyoti, 2018. – B. 203.
https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_11_noyabr_2022.pdf.

9. «Avesto». A. Mahkam tarjimasi. — T.: Sharq, 2001.
10. O'sha manba.
https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_11_noyabr_2022.pdf.
12. https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_11_noyabr_2022.pdf.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. — Toshkent: Hilol nashr, 2021. — B. 5.
14. https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_11_noyabr_2022.pdf.
15. https://sgfjournal.uz/journal/file/20240111Markaziy%20Osiyo_2023-4.pdf.
16. Abdulaziz Mansur. “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi”. — Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2009. ("Niso" surasi 19-oyat).
17. Абу Али ибн Сино. Осор. «Тадбири манзил» («Домоводство»). Т.4. — Душанбе: Дониш, 2009. — С. 921.
18. https://sgfjournal.uz/journal/file/20240111Markaziy%20Osiyo_2023-4.pdf.
19. https://sgfjournal.uz/journal/file/20240111Markaziy%20Osiyo_2023-4.pdf.
20. Руссо Ж. Ж. Об общественном договоре или принципы политического права. — М.: Издательство Юрайт, 2020. — С. 146.
21. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
22. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
23. Харчев А.Г. Брак и семья в СССР. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: 1979. — С. 66.
24. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
25. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
26. <http://zi-kozlov.ru/collections/psychology-XXI-2025.pdf>.
27. Le Play F. L'organisation de la famille selon le vrai modèle signalé par l'histoire de toutes les races et de tous les temps. — Parij: Mame, 1895.
28. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.
29. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.
30. <https://saarj.com/wp-content/uploads/ACADEMICIA-NOVEMBER-FULL-JOURNAL-2022.pdf>.

31. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilaning-rivojlanish-tarixi>.
32. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/oilaning-rivojlanish-tarixi>.
33. <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/2952/2690/8008>.